

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.04.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

NAIMOV SHOHRUX BOTIRJON O'G'LI

**MAHALLIY XOM-ASHYOLAR ASOSIDA
UY-RO'ZG'OR BUYUMLARI UCHUN EMAL
OLISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.15 - Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Naimov Shohrux Botirjon o‘g‘li Mahalliy xom-ashyolar asosida uy-ro‘zg‘or buyumlari uchun emal olish texnologiyasini ishlab chiqish	3
Наимов Шохрух Ботиржон угли Разработка технологии получения эмалей для бытовых изделий на основе местного сырья	21
Naimov Shokhrukh Botirjon ugli Development of technology for obtaining enamels for household products based on local raw materials.....	39
E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works	42

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.04.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

NAIMOV SHOHRUX BOTIRJON O'G'LI

**MAHALLIY XOM-ASHYOLAR ASOSIDA
UY-RO'ZG'OR BUYUMLARI UCHUN EMAL
OLISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.15 - Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

Falsafa doktori dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2024.3.PhD/T4805 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori dissertatsiyasi Toshkent kimyo-texnologiya institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy Kengash veb-sahifasi (ik.kimyo.tnu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot - ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Aripova Mastura Xikmatovna**
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Iskenderov Ahmed Maksedbayevich**
texnika fanlari doktori, professor

Talipov Nig'matulla Xamidovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **I Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.04.01 raqamli Ilmiy Kengashining «19» 11 2024 y. soat «9»⁰⁰» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent sh., Shayxontohur tumani, A. Navoiy ko'chasi, 32-uy. Tel.: (99871) 244-79-20, faks: (99871) 244-79-17, e-mail: ikti_info@edu.uz, Toshkent kimyo-texnologiya instituti Ma'muriy binosi, 2-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 88 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: (100011, Toshkent sh., Shayxontohur tumani, A. Navoi ko'chasi, 32. Tel.: (99871) 244-79-20).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «26» 10 kuni tarqatildi.
(2024 yil «26» 10 dagi № 480 raqamli reestr bayonnomasi)



S.M. Turobjonov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash Raisi, t.f.d., akademik

X.I. Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash kotibi, t.f.d., professor

Z.A. Babaxanova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
Kengash qoshidagi Ilmiy seminarga
raislik qiluvchi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Bugungi kunda texnologik jarayonlarni o'zgartirmasdan yangi, sifatli shisha emal qoplamalar ishlab chiqarish katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Oson tozalanishni ta'minlashi bilan bir qatorda, tayyor va yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashda sanitar toza, bakteriyalar rivojlanishini oldini oluvchi, agressiv kimyoviy moddalar ta'siriga barqaror, korroziya, qirilish, ishqalanish va yuqori haroratga bardoshli shisha emal qoplamali uy-ro'zg'or buyumlari olish texnologiyalarini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Jahonda ftorsiz emal ishlab chiqarish, metall buyumlari yuzasini shisha emal bilan qoplash, havo bilan reaksiyaga kirishmaydigan shisha emal bilan qoplangan uy-ro'zg'or buyumlari ishlab chiqarish texnologiyalarini qo'llashga qaratilgan chuqur tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu munosabat bilan kam ftoridli tarkibga ega va yuqori sifatli ekologik toza, alyuminiy, kremniy va titan oksidlari miqdorini oshirilishi orqali kimyoviy bardoshli, yuqori mikroqattqlikka ega, zarbaga chidamli, tishlashuvchan, ishqalanishga bardoshli, korroziyabardoshli, mustahkam silikat-kislorodli karkasga ega grunt qoplamasini olishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda moddiy resurslardan samarali foydalanish, shisha emal bilan qoplangan uy-ro'zg'or buyumlari ishlab chiqarish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turini kengaytirish, sifati va hajmini oshirish uchun keng ko'lamdagi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «muhim sanoat mahsulotlari bozor konyunkturasini o'rganish asosida ichki bozorning tegishli mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan takliflar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish»¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada yuqori sifatli energotejamkor, past erish haroratiga ega shisha emal qoplamalari tarkibini ishlab chiqish, olish texnologiyasini takomillashtirish, uy-ro'zg'or buyumlari assortimentini kengaytirish va sifati oshirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yilning 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2021 yil 13 fevredagi PQ-4992-son «Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, metallurgiya sanoati korxonalarini modernizatsiya qilish, raqobatbardosh mahsulotlar turlarini kengaytirish, xomashyolarning yangi zahiralarini yaratish, ular asosida import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilish to'g'risida»gi, 2022 yil 24 yanvardagi PQ-99-son «Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2022-yil 21-fevraldagi PQ-139-son «Uy-joy qurilishi va qurilish sohasini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2019 yil 3 apreldagi PQ-4265-sonli «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019 yil 1 maydagi PQ-4302-son «Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi 2022-yilning 28-yanvardagi PF-60-son farmoni.

bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlantirishning VII. «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiya» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Shisha emal qoplamalar tarkibi ishlab chiqish, uy-ro'zg'or buyumlari ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish muammolari bilan dunyoga mashhur olimlar shug'ullangan, jumladan S. Rossi, D. Velez, J. Munoz, E. Scrinzi, R. Francesca, S. Massimo, S. Pagliuca, L. Bergamo, M. Calovi, W. Faust, Y. Liao, B. Zhang, M. Feng, Abul Hossain, Leila Samiee, Hossein Sarpoolaky, Mirhabibi A, Ken Chen, Fuhui Wang, Shenglong Zhu, Yasin Bozkurt, Conde A, Dambonerea J, Izgagina D, Yan D, Qian H, Tang F, Deng J, Huang Z, Shirasak M, Shimizu T, Lizawa Y, Fan L, Reis S, Koenigstein M, Quaranta A, Tavella L, Deflorian F, Nurullah, Subbotin I, O.R.Lazutkina, E.P. Farafontova, I.G. Voroshilova, E.A. Yassenko, Xoroshavina V, V. Veropaxa A.P. Zubexin, E.A. Shkurakova, A.S. Mikaeva, I.V. Goleus, A.A. Saley, A.V. Deryabin, A.Y. Spiridonov, E.V. Sareva, N. Parziani, C. Zanella, M.Yu. Yunusov, M.X. Aripova, Z. Babaev, Sh. Matchonov va boshqalar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishgan.

Ular tomonidan ftoridlar va bor angidrid miqdori kamaytirilgan mikrotuzilishli grunt qoplamalar taribini ishlab chiqish asoslari yaratilgan, metall qalinligi, emal turi va qalinligi bo'yicha ichki va tashqi yuzaga bo'ladigan zarb ta'sirida vujudga keladigan nuqsonlarni bartaraf etish usullari aniqlangan, uy - ro'zg'or buyumlari uchun emal qoplamalar ishlab chiqarish texnologiyalari takomillashtirilgan.

Shu bilan birga, mavjud va arzon xomashyolardan sifatli energotejamkor, past erish haroratiga ega shisha emal qoplamalari tarkibini ishlab chiqish, oziq-ovqat mahsulotlarini saqlashda sanitar toza, bakteriyalarning o'sishini oldini oluvchi, agressiv kimyoviy moddalar ta'siriga barqaror, korroziya, qirilish, ishqalanish va yuqori haroratga bardoshli, havo bilan reaksiyaga kirishmaydigan shisha emal qoplamali uy-ro'zg'or buyumlari olish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent kimyo-texnologiya institutining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq 2021 yilgi PZ-2017092150 «Kvars qumini ho'l usulda boyitish» (2021-2023 yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mahalliy xomashyolar asosida uy - ro'zg'or buyumlari uchun emal qoplamalar olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

$\text{SiO}_2\text{-Al}_2\text{O}_3\text{-Na}_2\text{O-K}_2\text{O-CaO-B}_2\text{O}_3\text{-NiO-CO}_2\text{O}_3\text{-Cu}_2\text{O}$ tizimida grunt qoplamasi hosil bo'lish sharoitlarini o'rganish;

$\text{SiO}_2\text{-Al}_2\text{O}_3\text{-Na}_2\text{O-K}_2\text{O-CaO-B}_2\text{O}_3\text{-TiO}_2$ tizimida emal qoplamasi hosil bo'lish sharoitlarini o'rganish;

mahalliy xomashyolar asosida grunt va emal qoplamalari maqbul tarkib ishlab chiqish;

uy-ro'zg'or buyumlari uchun belgilangan fizik-texnik xususiyatlarga ega grunt qoplamasi olishning texnologik parametrlarini ishlab chiqish;

uy-ro'zg'or buyumlari uchun fizik-texnik xususiyatlari yaxshilangan emal qoplamalarini ishlab chiqarishning texnologik parametrlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida kvarts qumi, soda, mikrokaltsit, gilli slanetslar, grunt va emal qoplamalari olingan.

Tadqiqotning predmeti metall yuzasi uchun emal qoplamalari olish texnologiyasi va uning xususiyatlarini o'rganish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tabiiy mahalliy xomashyolar, olingan grunt va emal qoplamalarni fizik - kimyoviy va strukturaviy tahlil qilishning zamonaviy rentgen-fluorescent va rentgen fazoviy, IQ va UB spektroskopik, elektron mikroskop usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bora, mass %: 40 - 55 SiO_2 , 3 - 9 Al_2O_3 , 15 - 30 Na_2O , 4 - 10 CaO , 0.5 - 3 K_2O , 0,4 - 1 NiO , 0,1 - 0,8 Co_2O_3 , 0,4 - 0,9 Cu_2O miqdoriy chegaralarda shisha hosil bo'lish maydoni aniqlangan;

$\text{SiO}_2\text{-Al}_2\text{O}_3\text{-Na}_2\text{O-K}_2\text{O-CaO-B}_2\text{O}_3\text{-NiO-Co}_2\text{O}_3\text{-Cu}_2\text{O}$ tizimida yoyiluvchanligi 30 - 61 mm, issiqlikdan chiziqli kengayish koeffitsenti $114 - 136 \cdot 10^{-7} \text{ K}^{-1}$, po'lat yuzasiga yopishish kuchi 1 - 4,5 balli grunt qoplamasi sintez qiligan;

Co_2O_3 va Cu_2O oksidlari 1:2 nisbatlari grunt qoplamasining metall yuzasida yopishqoqlik xususiyatini yuqoriligi isbotlangan;

ilk bora $\text{SiO}_2\text{-Al}_2\text{O}_3\text{-Na}_2\text{O-K}_2\text{O-B}_2\text{O}_3\text{-TiO}_2\text{-P}_2\text{O}_5$ tizimida shisha hosil bo'lish maydoni aniqlanib, titan dioksid kiritilishi orqali rutil va anataz kristallari hosil bo'lish asoslangan;

yoyiluvchanligi 35 - 43 mm, issiqlikdan chiziqli kengayish koeffitsenti $81\text{-}89 \cdot 10^{-7} \text{ K}^{-1}$, kimyoviy bardoshlilik AA - A sinflari oralig'ida bo'lgan, oqlik darajasi TiO_2 (kordinatsion soni 4^+ yoki 6^+) bo'yicha ko'rsatgichi 77 %ga teng emal qoplamasi sintez qilishning maqbul parametrlari aniqlangan;

uy - ro'zg'or buyumlari uchun mahalliy homashyolar asosida grunt va emal qoplamalari olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

$\text{SiO}_2\text{-Al}_2\text{O}_3\text{-Na}_2\text{O-K}_2\text{O-CaO-NiO-B}_2\text{O}_3\text{-Co}_2\text{O}_3\text{-Cu}_2\text{O}$ tizimida uy - ro'zg'or buyumlari uchun grunt qoplamasi tarkibi ishlab chiqilgan;

$\text{SiO}_2\text{-Al}_2\text{O}_3\text{-Na}_2\text{O-K}_2\text{O-B}_2\text{O}_3\text{-TiO}_2\text{-P}_2\text{O}_5$ tizimida uy - ro'zg'or buyumlari uchun emal qoplamasi tarkibi ishlab chiqilgan;

uy - ro'zg'or buyumlari uchun grunt va emal qoplamalari olishning maqbul parametrlari aniqlangan;

mahalliy homashyolar asosida uy - ro'zg'or buyumlari uchun grunt va emal qoplamasi olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot o'tkazilgan tajribalarning katta hajmi, zamonaviy tadqiqot usullari majmuasidan foydalangan holda olingan natijalarning bir-biriga mos kelishi, shuningdek, tadqiqot natijalarini joriy qilinishi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki $SiO_2-Al_2O_3-Na_2O-K_2O-CaO-B_2O_3-NiO-Co_2O_3-Cu_2O$ tizimida grunt, $SiO_2-Al_2O_3-Na_2O-K_2O-B_2O_3-TiO_2-P_2O_5$ tizimda emal qoplamasi uchun shisha hosil bo'lish maydoni asoslanib, po'lat asosili uy-ro'zg'or buyumlari uchun grunt va emal qoplamalari olinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oynakum kvarts qumi, jerdanak gilli slanetsi va mikrokalsit asosida korroziya, ishqalanishga chidamli va mustahkamligi yuqori fizik-kimyoviy xususiyatlarga ega bo'lgan import o'rnini bosuvchi grunt va emal qoplamalarining tarkibi va texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mahalliy homashyolar asosida uy-ro'zg'or buyumlari uchun emal qoplamalar olish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mahalliy xomashyolar asosida grunt qoplamalar tarkibi va ishlab chiqarish texnologiyasi «GOLDFIBER PRO» qo'shma korxonasida ishlab chiqarishda sinovdan o'tkazilgan (O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasining 2024 yil 12 avgustdagi 04/13-2254 son ma'lumotnomasi). Natijada, yoyiluvchan va mustaxkam, mexanik ta'sirga chidamli grunt qoplamalar ishlab chiqarish imkonini bergan;

uy-ro'zg'or buyumlari uchun emal qoplamalar ishlab chiqarish texnologiyasi «GOLDFIBER PRO» qo'shma korxonasida ishlab chiqarishda sinovdan o'tkazilgan (O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasining 2024 yil 12 avgustdagi 04/13-2254 son ma'lumotnomasi). Natijada, yoyiluvchanligi 35 - 43 mm, issiqlikdan chiziqli kengayish koeffitsenti $81 - 89 \cdot 10^{-7} K^{-1}$, kimyoviy turg'unligi AA sinfiga mos emal qoplamalar ishlab chiqarish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Ilmiy-tadqiqot ishlarining asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-texnikaviy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 133 bet, 29 ta jadval va 20 ta rasmlardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va hozirgi kun talabiga javob berishi, maqsad va vazifalari asoslangan, uning obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnikasi rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyatini ochib berilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishiga muvofiq tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiya ishining «**Adabiyotlar tahlili. uy-ro'zg'or buyumlari uchun emal qoplamasining zamonaviy holati**» deb nomlangan birinchi bobida grunt va emal qoplamalari ishlab chiqarish uchun turli sistemalar, sistemalarni qanoatlantiruvchi xomashyo bazasi va ishlab chiqarish texnologiyalari, qoplamalarning zaruriyati va po'lat buyumlarni korroziyadan himoyalash nuqtai nazaridan tutgan o'rni, dunyoda grunt va emal qoplamalarining qo'llash tendensiyalari tahlil qilinadi. O'zbekiston boy xomashyo bazasidan zarur fizik, mexanik va estetik xususiyatlarga ega bo'lgan grunt va emal qoplamalari olish uchun foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan. Shunga asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiya ishining «**Tadqiqot usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tanlab olingan dastlabki mahalliy tabiiy xom ashyo va tayyor mahsulotning fizik-kimyoviy xossalarini tahlil qilishning rentgenografik, mikroskopik va IQ-spektroskopik tahlil usullari keltirilgan. Texnik xususiyatlar talablari asosida emal qoplamalarining xossalarini tekshirish usullari keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning «**Grunt qoplamasi uchun shisha tarkibini ishlab chiqish, xossalari va strukturasi o'rganish**» deb nomlangan uchunchi bobida grunt qoplamasi uchun tarkiblar chegarasini aniqlash, mahalliy xomashyolar asosida shisha fritta sizntez qilish, sintez qilingan frittani xossalari va strukturasi o'rganish bo'yicha materiallar keltirilgan.

$SiO_2-Al_2O_3-Na_2O-K_2O-CaO-B_2O_3-NiO-Co_2O_3-Cu_2O$ tizimida oksidlarga asoslangan holda grunt qoplamasi tarkiblarini sintez qilish. Po'lat buyumlari uchun qo'llaniladigan grunt qoplamasiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bu yuqori mustahkamlik, yoyiluvchanlik va issiqlikdan chiziqli kengayish koeffitsenti hisoblanadi. Yuqoridagi xususiyatlarga ega bo'lgan grunt qoplamasi olish yuqorida tanlab olingan tizim asosida tuziladigan tarkiblarga bog'liq bo'ladi. Metall va grunt o'rtasidagi yopishqoqlikni shisha tarkibiga kiruvchi NiO, Co_2O_3 va Cu_2O oksidlari orqali ta'minlash mumkin. Yoyiluvchanlik xususiyatini esa B_2O_3 orqali kerakli natijaga erishish mumkinligi aniqlangan.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida talab etiladigan texnologik va ekspluatatsion xususiyatlarga ega bo'lgan shisha tarkiblarini aniqlash uchun $SiO_2-Al_2O_3-Na_2O-K_2O-CaO-B_2O_3-NiO-Co_2O_3-Cu_2O$ tizimi tanlab olindi. Ushbu tizim asosida GOST talablariga javob beradigan grunt qoplamasi olish uchun 30ta tarkib tuzilib sintez qilindi. Sintez qilingan shisha fritta na'munalarining fizik – kimyoviy xususiyatlari o'rganilib grunt qoplamasi olish uchun tarkibdagi oksidlar chegarasi mass%: 41–54 SiO_2 , 4–8 Al_2O_3 , 18–27 Na_2O , 0.5–2 K_2O , 5–10 CaO , 8–18 B_2O_3 , 0.1–0.8 Co_2O_3 , 0,4–1 NiO , 0,4–0,9 Cu_2O ekanligi aniqlandi. Shisha fritlarning kompozitsiyalari

etarli darajada yopishish kuchi (4-5 ball), kerakli issiqlikdan chiziqli kengayish koeffitsientini ($105-125 \cdot 10^{-7} K^{-1}$) va metall yuzasiga yoyiluvchanlik qobiliyati (25-60 mm)ni ta'minlaydi.

SiO₂-Al₂O₃-Na₂O-K₂O-CaO-B₂O₃-NiO-Co₂O₃-Cu₂O tizimida xom ashyolar yordamida grunt qoplamasi tarkiblarini sintez qilish. Yuqorida belgilangan kompozitsiyalarning chegaralarini ta'minlash uchun mahalliy xom ashyolar tanlab olindi. Asosiy shisha hosil qiluvchi xom-ashyo sifatida Oynaqum konidan olingan kvarts qumi, bunda tarkibdagi SiO₂, Al₂O₃, K₂O miqdori yuqori ekanligi manba bo'lib xizmat qildi. Jerdanak konidan olingan gilli slanets va CaO manbai sifatida Qashqadaryo mikrokalsitlari tanlandi.

Shisha omixtasi komponentlarining kimyoviy tarkibi 1-jadvalda keltirilgan.

1- jadval

Xomashyolarning kimyoviy tarkibi

Xom ashyo	Oksidlar miqdori, mass%											
	SiO ₂	Na ₂ O	K ₂ O	CaO	Al ₂ O ₃	B ₂ O ₃	MgO	NiO	Co ₂ O ₃	Cu ₂ O	Fe ₂ O ₃	p.p.p
Kvarts qumi	92,5	–	1,03	0,271	3,51	–	0,04	–	–	–	0,087	–
Mikrokalsit	0,31	–	0,034	53,40	0,23	–	5,03	–	–	–	0,06	40,94
Gilli slanets	49,6	–	4.44	0,184	38,3	–	–	–	–	–	0,682	5,694
Soda	Na ₂ CO ₃ 99,11	NaCl 0,35	Na ₂ SO ₄ 0,04	–	–	–	–	–	–	–	0,003	–
Bor kislotasi	H ₃ BO ₃ 99,9	Cl ⁻ 0,001	SO ₄ 0,005	–	–	–	–	–	–	–	–	–
Nikel oksid	–	–	–	–	–	–	–	99,0	–	–	–	1,0
Kobalt oksid	–	–	–	–	–	–	–	–	99,0	–	–	1,0
Mis oksid	–	–	–	–	–	–	–	–	–	99,0	–	1,0

Sintez qilingan frittalarga kerakli bo'lgan to'ldiruvchilar qo'shib grunt qoplama tarkiblari tuzildi. Bu quyidagicha amalga oshirildi: olingan fritta 008 elakdan o'tguncha maydalandi. Shlikerning tarkibi quyidagicha, grunt uchun: fritta – 100%; tuproq(glina) – 6%; kvarts qumi – 15%; distillangan suv – 40% bilan grunt qoplamasi shliker ko'rinishida hosil qilindi. Gruntlangan po'lat namunalari quritish pechida 100 °C haroratda 15 daqiqa davomida quritilib, 3 daqiqa ushlab turish vaqti bilan 840 - 870°C haroratda elektr pechida termik ishlov berildi.

SiO₂-Al₂O₃-Na₂O-K₂O-CaO-B₂O₃-NiO-Co₂O₃-Cu₂O tizimida sintez qilingan grunt qoplamalarining fizik-kimyoviy xossalari o'rganish. Sintez qilingan tarkiblarning fizik-kimyoviy xossalari o'rganildi, GOST talablariga to'liq javob beradigan optimal tarkiblar tanlab olindi (2-jadval) va grunt qoplamasining yoyiluvchanlik qobiliyati, po'latga yuzasiga yopishish kuchi va issiqlikdan chiziqli kengayish koeffitsenti xususiyatlari bo'yicha xorijiy analoglar bilan solishtirildi (3-jadval).

2 – jadval

Grunt qoplamasining optimal tarkiblari

Tarkiblar indeksi	Yoyiluvchanlik, mm	Po'lat yuzasiga yopishish kuchi, ball	ICHKK, 10 ⁻⁷ , K ⁻¹
№11	37,0	4,5	120,2
№12	47,0	4	124,2
№13	37,0	4	115,5
№14	45,5	4,5	126,0

Optimal kompozitsiyani xorijiy analoglar bilan taqqoslash

Tarkiblar indeksi	Yoyiluvchanlik, mm	Po'lat yuzasiga yopishish kuchi, ball	IChKK, $10^{-7}, K^{-1}$
№11	37,0	4,5	120,2
№12	47,0	4	124,2
№13	37,0	4	115,5
№14	45,5	4,5	126,0
ФГТ2С-3313 (Rossiya)	37,0	4,0	105,0
GR – 2252 (Turkiya)	56,0	4,0	125,0
GOST 52569 – 2018	15 – 70	4,0 – 5,0	90 – 125



3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqilgan optimal grunt qoplamalari talablarga mos keladi.


SiO₂–Al₂O₃–Na₂O–K₂O–CaO–B₂O₃–NiO–Co₂O₃–Cu₂O tizimi asosida grunt qoplamasining strukturasi o'rganish. Grunt qoplamalarining barcha spektrlarida 250-500, 700-1250, 1250-1600 cm^{-1} va 2000-4000 cm^{-1} maydonlarda joylashgan to'rtta asosiy yutish tekisliklari mavjud. Spektrlardagi farqlar materiallar tarkibidagi xilma xilliklar bilan ifodalanadi. Bunda bor miqdorining o'zgarishi eng ko'p ta'sir qiladi.

800-1250 cm^{-1} yutish maydoni Si–O–Si va SiO₄ kabi kremniy guruhi mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu maydonga to'rt kordinatsionli borning tebranishi ham mos keladi.

1400-1500 cm^{-1} maydon kalsiy silikatlarini mavjudligini anglatadi. Ushbu maydonda BO₃ ning tebranishining mavjudligi shisha tarkibidagi borning miqdorini ortishi bilan bog'liq. 500-400 cm^{-1} maydondagi tekisliklar kremniy va fosfor guruhlarini mavjudligini bildiradi. Tarkib №5 da fosforning miqdori ortishi bilan, intensivlik oshib boradi. 400-280 cm^{-1} maydonda XO₆ (X = Mg, Ca, Ni, Co)lar tekisliklari kuzatiladi.

1-rasmda grunt qoplamasining chegarasi ko'rsatilgan, bu qoplamaning metallga kirib borishida va Co, Ni va Cu ning bir xil taqsimlanishini ko'rsatadi.





1-rasm. Elektron mikroskopik tasvir, grunt qoplamasidagi elementlarning tarqalishi.

Dissertatsiyaning “**Emal qoplamasining tarkibini ishlab chiqish, xossalari va strukturasi o‘rganish**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida emal qoplama uchun tarkiblar chegarasini $\text{SiO}_2\text{--Al}_2\text{O}_3\text{--Na}_2\text{O--K}_2\text{O--B}_2\text{O}_3\text{--TiO}_2\text{--P}_2\text{O}_5$ tizimida oksidlarga asoslangan holda aniqlash, mahalliy xomashyolar asosida shisha fritta sintez qilish, sintez qilingan frittani xossalari va strukturasi o‘rganish bo‘yicha materiallar keltirilgan.

Emal qoplamasiga qo‘yiladigan asosiy talablardan kimvoviy turg‘unlik, yoyiluvchanlik va issiqlikdan chiziqli kengayish koeffitsenti hisoblanadi. Yuqoridagi xususiyatlarga ega bo‘lgan emal qoplama olishda tanlab olingan tizim asosida tuziladigan tarkiblarga bog‘liq bo‘ladi.

$\text{SiO}_2\text{--Al}_2\text{O}_3\text{--Na}_2\text{O--K}_2\text{O--B}_2\text{O}_3\text{--TiO}_2\text{--P}_2\text{O}_5$ tizimiga asoslangan holda GOST talablariga javob beradigan emal qoplamalarini olish uchun 30 ta tarkib sintez qilindi. Olingan frit namunalari xossalari o‘rganilib, tarkibdagi oksid miqdori chegarasi aniqlandi.

Sintez qilingan shishalardagi oksidlarning optimal miqdori quyidagi oraliqlarda mass%: 39–45 SiO_2 , 4–7 Al_2O_3 , 11–16 Na_2O , 1.5–3 K_2O , 14–21 B_2O_3 , 12–19 TiO_2 , 2–3 P_2O_5 ekanligi aniqlandi.

$\text{SiO}_2\text{--Al}_2\text{O}_3\text{--Na}_2\text{O--K}_2\text{O--B}_2\text{O}_3\text{--P}_2\text{O}_5\text{--TiO}_2$ tizimida xomashyolar yordamida emal qoplamasining tarkiblarini sintez qilish.

Tanlangan xom ashyoning kimyoviy tarkibi 4-jadvalda keltirilgan.

4 - jadval

Xom ashyolarning kimyoviy tarkibi

Xom ashyo	Oksidlar miqdori, mass%								
	SiO_2	Na_2O	K_2O	CaO	Al_2O_3	B_2O_3	TiO_2	Fe_2O_3	p.p.p
Kvars qumi	92,5	–	1,03	0,271	3,51	–	0,04	0,087	-
Gilli slanets	49,6	–	4,44	0,184	38,3	–	–	0,682	5,694
Titan oksid	–	–	–	–	–	–	98,0	–	1,0
Soda	Na_2CO_3 99,11	NaCl 0,35	Na_2SO_4 0,04	–	–	–	–	–	–
Bor kislotasi	H_3BO_3 99,9	Cl ⁻ 0,001	SO_4 0,005	–	–	–	–	–	–
$(\text{NH}_4)_2\text{H}_2\text{PO}_4$	(NH_4) H_2PO_4 99,5	Suvda erim. 0,005	SO_4 0,005	Cl ⁻ 0,0005					
Potash	K_2CO_3 98,0	Na_2CO_3 0,6	Al_2O_3 0,25	K_2SO_4 0,4	–	–	–	–	43,44

Mahalliy xom-ashyo asosidagi emal qoplamalarini olish uchun yuqori oqlik, issiqlikdan chiziqli kengayishning koeffitsienti, korroziya va kimyoviy ta'sirga chidamlilik, yaltiroqlik, tashqi ta'sirlar natijasida qirilish va ishqalanishga chidamlilik kabi xususiyatlarni ta'minlash kerak. Emal qoplamasi olish uchun titan dioksidi saqlagan turli tarkiblar 5-jadvalda keltirilgan.

5 – jadval

SiO₂–Al₂O₃–Na₂O–K₂O–CaO–B₂O₃–TiO₂–P₂O₅ tizimi asosida olingan frittaning kimyoviy tarkibi

Tarkiblar indeksi	Oksidlar miqdori, mass%								
	SiO ₂	Al ₂ O ₃	Na ₂ O	K ₂ O	CaO	TiO ₂	P ₂ O ₅	Fe ₂ O ₃	B ₂ O ₃
№1001	42,4	4,54	14,0	2,29	0,07	17,3	2,30	0,06	16,4
№1002	42,1	4,20	13,0	2,06	0,08	18,2	1,9	0,07	18,4
№1003	41,8	4,67	13,6	2,41	0,08	17,9	2,07	0,05	17,4
№1004	43,0	4,45	13,4	2,32	0,08	15,6	2,11	0,06	19,0
№1005	41,7	4,98	13,3	2,35	0,09	18,6	2,04	0,06	16,1
№1006	41,6	4,7	13,9	2,38	0,08	16,1	2,20	0,06	18,1
№1007	42,9	4,91	14,2	2,54	0,07	15,1	2,4	0,06	17,95
№1008	42,6	4,75	14,0	2,41	0,08	17,2	2,15	0,05	16,76
№1009	44,0	4,90	13,6	2,29	0,09	14,7	2,35	0,06	18,0
№1010	43,9	4,18	13,2	2,21	0,06	16,8	2,29	0,07	17,29

SiO₂–Al₂O₃–Na₂O–K₂O–B₂O₃–TiO₂–P₂O₅ tizimida emal qoplamasining fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish. Sintez qilingan shisha frittalarga kerakli qo'shimchalar qo'shib emal qoplamasi olindi. Bu quyidagicha amalga oshirildi: sintezlangan shisha frittasi 008 elakdan o'tguncha maydalanib so'ngra tuproq va suv qo'shildi. Grunt qoplamasi olish uchun tarkibi quyidagicha amalga oshirildi: shisha frittasi - 100%; tuproq - 6%; kvarts qumi - 15%; distillangan suv - 40%. Emal bilan qoplangan gruntlangan po'lat namunalari pechda 100 ° C haroratda 15 daqiqa davomida quritilgan va elektr pechda 820 - 840 ° C haroratda 5 daqiqa davomida issiqlik bilan ishlov berilgan.


Sintez qilingan tarkiblarning fizik – kimyoviy xossalari o'rganilib GOST talablariga to'liq javob beradigan optimal tarkiblar tanlab olinib emal qoplamasining yoyiluvchanligi, po'lat yuzasiga yopishish kuchi va issiqlikdan chiziqli kengayish koeffitsenti kabi xususiyatlari bo'yicha xorijiy analoglar bilan solishtirildi(6 jadval).

6 – jadval

Optimal tarkiblar bilan analoglarni solishtirish

Tarkiblar indeksi	Yoyiluvchanlik, mm	Kimyoviy bardoshlik	IChKK, 10 ⁻⁷ , K ⁻¹
1007	36,0	AA	85,8
1010	43,0	AA	81,9
1012	39,0	AA	87,7
ФПБС – 400(Rossiya)	44,0	AA	92,2
B 3772 (Turkiya)	38,0	AA	103,2
GOST 52569 – 2018	30 – 75	AA	80 – 130

SiO₂–Al₂O₃–Na₂O–K₂O–CaO–B₂O₃–TiO₂ tizimida emal qoplamasining strukturasi o‘rganish. Emal frittasining ayrim namunalari IQ spektrlarida keltirilgan(2-rasmda).



a

b

2 – rasm. Emal frittasi namunalarning IQ spektri: a – № 1005; b – № 1006.

Sintez qilingan fritta na‘munalariga IQ spektroskopiya yordamida turli maydonlar o‘rganilganda quyidagi to‘lqin chastotalari aniqlandi. Bular: 501,51 cm⁻¹ va 553,59 cm⁻¹ bo‘lib, ushbu to‘lqinlar – [TiO₆] gruppasiga mansub ekanligi aniqlandi, 712,73 cm⁻¹ va 702,12 cm⁻¹ to‘lqinlar – [TiO₄] gruppasiga tegishli ekanligi, 1043,53 cm⁻¹ to‘lqinda Si–O–Si qatlamli tuzilish (disilikat tipidagi guruhlar), 1082,11 cm⁻¹ to‘lqinda Si–O–Si karkassimon strukturada, 1401,34 cm⁻¹, 1437,99 cm⁻¹ va 1445,71 cm⁻¹ to‘lqinlar esa [BO₃] gruppasiga mos kelishli aniqlandi.


Taqdim etilgan ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, shisha frittasida to‘rt va oltita muvofiqlashtirilgan titan oksidi bir vaqtning o‘zida mavjudligi aniqlandi.

Emal qoplamasi buyumlarning korroziyaga uchrashini oldini olibgina qolmasdan estetik dizayn va jozibakorlik bahs etadi, bunda asosiy omil emal qoplamasining oqlik darajasi bo‘lib xizmat qiladi. Oqlik darajasini aniqlash uchun UB – 2600 qurilmasi yordamida tekshiruvlar o‘tkazilib aks ettiruvchanlik qiymatiga asoslangan holda emal qoplamalarining oqlik darajasi aniqlandi(3 – rasm).

Aks ettiruvchanlik tarkib №1002 uchun 810 nm to‘lqin uzunligida 80.532% atrofida maksimal darajada bo‘ldi va 659.5 nm to‘lqin uzunligida 78.254% gacha kamaydi.

Aks ettiruvchanlik tarkib №1003 uchun 809 nm to‘lqin uzunligida 78.319% atrofida maksimal darajada bo‘ldi va 646 nm to‘lqin uzunligida 74.210% gacha kamaydi.

Tadqiqotlar natijasida ma‘lum bo‘ldiki emal qoplamasining oqlik qiymati 69-81% oralig‘ida ekanligi aniqlandi. №1002-sonli tarkib eng yaxshi aks ettirishga ega.




a

b

3 – rasm. Emal qoplamasini aks ettirish ko‘rsatkichlari: a - № 1002; b – № 1003.

Emal qoplamalariga qo'yiladigan talablar GOST 24788-2018 "Emallangan po'latdan olingan uy – ro'zg'or buyumlari. Umumiy texnik shartlar"ga javob bera oladi.


1004-sonli namunani fazaviy tahlil qilish natijasi 4-rasmda keltirilgan




4–rasm. №1004 tarkibli emal qoplamasining difraktogrammasi.

4-rasmda 830°C haroratda olingan namunaning difraktogrammasi keltirilgan. RFA ma'lumotlariga ko'ra, 1004 namunasi kristall va amorf fazadan iborat bo'lib, kristal fazasi 92,2% TiO₂ rutil va 7,8% TiO₂ anatazdan iborat. JCPDS №96-900-9084 ma'lumotlariga ko'ra, TiO₂ rutil p 42/mnm (136) fazoviy guruhi va panjara parametrlari a=b=4,6 va C=2,96 Å, bilan tetragonal kristalli tuzilishga ega.

5–rasmda 830°C haroratda olingan namunaning difraktogrammasi keltirilgan. RFA ma'lumotlariga ko'ra, №1005 namunasi kristall va amorf fazadan iborat bo'lib, ma'lumotlarga ko'ra, kristall fazasi faqat rutilning TiO₂ (JCPDS №96-900-9084) dan iborat bo'lib, anatazning TiO₂ fazasi qayd etilmagan. Rutilning TiO₂ ga mos keladigan piklar intensivligining oshishi qayd etildi. Rutil piklarining yuqori intensivligi TiO₂ komponentining o'sishi tufayli yuzaga keladi.




5–rasm №1005 emal qoplamasining difraktogrammasi.



6-rasm. Grunt va emal qoplamasining SEM tasviri.

6-rasm orqali grunt va emal qoplamalari orasidagi yopishish chegarasini ko‘rishimiz mumkin. Bunda ko‘rinib turibdiki grunt – emal o‘rtasidagi yopishqoqlik yaxshi, qatlamlar bir-birini to‘liq to‘ldirganini ko‘rish mumkini. Rasmdagi tasvirlar yuqoridagi emal bilan solishtirganda, emal qoplamasidagi kristal fazaning ustun tarkibini ko‘rsatadi. Ikkala namunada rutilning yuz shaklidagi kristallari mavjud va 1004-sonli namuna tarkibida piramidal anataz kristallari mavjud.

7-rasmda grunt-emal bog‘lanish chegarasini va grunt-emal bog‘lanish qanday hosil bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin. Grunt-emal chegarasining kimyoviy tahlili energiya dispersiv spektrometr yordamida amalga oshirildi.



Rasm–7. Grunt va emal qoplamasi orasidagi chegarasining EDS tahlili.

Tahlillar natijasi tarkibda emal qoplamasini tashkil etuvchi elementlarning mavjudligini ko‘rsatdi. Taqdim etilgan rasmdan ko‘rinib turibdiki, kremniy grunt va emal qoplamalarida bir tekis taqsimlangan, alyuminiy emal sohasida, shuningdek fosfor, kaliy va titan to‘plangan.

Dissertatsiyaning **“Qoplamalar olish texnologiyasini ishlab chiqish”** deb nomlangan beshinchi bobida grunt va emal qoplamalari olish bo‘yicha ishlar keltirilgan. Bunda xomashyolarni boyitishdan boshlab tayyor mahsulot omborga borgungacha ketadigan jarayonlar yoritib berilgan.

Grunt olishning texnologik tizimini ishlab chiqish

Grunt qoplamasi ishlab chiqarish quyidagi sxema bo‘yicha amalga oshiriladi: *xomashyoga ishlov berish va shixta tayyorlash → shisha pishirish → shishani suv xammomiga quyish orqali fritta olish → frittaga kerakli qo‘shimchalar qo‘shish orqali grunt qoplamasi olish.* Grunt qoplamasi ishlab chiqarish prinsipial sxemasi 8-rasmlarda keltirilgan.

Kvars qumi bunker (1) dan ta‘minlagich (2) orqali vibratsion elak (5)ga uzatiladi va elakdan o‘tgan kvars qumi taminlagich (2) orqali xomshayoni saqlash bunker (6) ga yegiladi, xomshayoni saqlash bunkeridan kerakli miqdorda o‘lchab olish uchun dozator (7) ga yuborilib tortib olingan kvars qumi tarelkasimon aralashtirgich (8) ga yuboriladi.


Gilli slanetsi bunker (1) dan jagʻli maydalagich (3) ga uzatiladi, dagʻal maydalangan slanets nafis maydalash uchun bolgʻali maydalagich (4) ga yuboriladi, kerakli darajada maydalangandan soʻng xomashyoni saqlash bunkeri (6) ga yegiladi va belgilangan ogʻirlikni oʻlchash uchun dozator (7) orqali tortib olinib tarelkasimon aralashtirgich (8) ga yuboriladi.

Mikrokalsit, soda, bor kislotasi, kobalt, nikel va mis oksidlari tayyor holda korxonaga keltirilganligi sababidan xomashyoni bunkeri (1) dan taminlagich (2) orqali vibratsion elakdan oʻtkazilib, xomashyoni saqlash bunkeri (6) ga uzatiladi va kerakli miqdorda tortib olish uchun taminlagich (2) orqali dozator (7) ga uzatiladi, kerakli miqdorda oʻlchab olingan xomashyolar tarelkasimon aralashtirgich (8) ga yuboriladi.

Dozalanib aralashtirgichga yegilgan xomashyolar changishini oldini olish maqsadida 2% miqdorda suv qoʻshgan xolda aralashtirilib shisha omixtasi olinadi.

Tayyor xolga kelgan omixta elevator (9) orqali vannali pech (10)ga yuboriladi.

Tayyor boʻlgan shisha massasini granula holatiga keltirish uchun suvli bassen (11) ga tushuriladi. Granula xolatida olingan shisha frittasiga kvars qumi va gil tuproq qoʻshilgan holda sharli tegirmon (12) ga yuklanib maydalanadi va 35 – 38% namlikda shliker olinadi. Shliker holatidagi grunt qoplamasiga metall buyumlar botirib olinib (13) quritiladi (14) va 860 – 880 °C haroratda elektr pechi (15)da kuydiriladi. Gruntlangan metall buyumlari emallashga yuboriladi.



8 – rasm. Grunt qoplamasi olishning printsipl texnologik tizimi:

1 – xomashyo bunkeri, 2 – taʼminlagich, 3 – jagʻli maydalagich, 4 – bolgʻali maydalagich, 5 – vibratsion elak, 6 – xomashyoni saqlash bunkeri, 7 – tarozi, 8 – tarelkasimon aralashtirgich, 9 – elevator, 10 – hovuzli humdon, 11 – granulyator, 12 – sharli tegirmon, 13 – metallni gruntlash vannasi, 14 – quritgich, 15 – elektr humdon.

Ushbu ishlab chiqilgan shisha pishirish rejimi “GOLDFIBER PRO” QK laboratoriyasida sinovdan o‘tkazildi (“GOLDFIBER PRO” QK ning 07.06.2024 yildagi dalolatnomasi), natijada grunt qoplamalari ishlab chiqarish uchun fritta olishga erishildi. Olingan frittaning rangi to‘q ko‘k, zichligi – $2,63 \text{ g/sm}^3$, yoyiluvchanlik – 37 mm, IChKK – $115,5 \cdot 10^{-7} \text{ K}^{-1}$, po‘lat yuzasiga yopishish kuchi 4 ball, bo‘lib, GOST R 52569 – 2018 talablariga javob berishi aniqlandi.

Emal qoplamasi olishning texnologik tizimini ishlab chiqish.

Sirt emal qoplamasi ishlab chiqarish quyidagi sxema bo‘yicha amalga oshiriladi: shixta tayyorlash → shisha pishirish → shishani suv xammomiga quyish orqali fritta olish → frittaga kerakli qo‘shimchalar qo‘shish orqali emal qoplamasi olish → gruntlangan po‘lat na‘munalari ustiga sirt emal qoplamasini qoplash → quritish → kuydirish.


Kvars qumi bunker (1) dan ta‘minlagich (2) orqali yuvish mashinasi (3)ga yuboriladi, yuvilgan kvars qumi taminlagich orqali barabanli quritgich (5)ga yuborilib quritiladi va taminlagich orqali magnit (8) dan o‘tqazilgan holda bunker (9)da yeg‘iladi, xomashyoni saqlash bunkeridan kerakli miqdorda o‘lchab olish uchun dozator (10) ga yuborilib tortib olingan kvars qumi tarelkasimon aralashtirgich (11) ga yuboriladi.

Gilli slanetsi bunker (1) dan taminlagich orqali jag‘li maydalagich (4) ga uzatiladi, dag‘al maydalangan slanets nafis maydalash uchun bolg‘ali maydalagich (6) ga yuboriladi, kerakli darajada maydalangandan so‘ng xomashyoni saqlash bunker (9) ga yeg‘iladi va belgilangan og‘irlikni o‘lchash uchun dozator (10) orqali tortib olinib tarelkasimon aralashtirgich (11) ga yuboriladi.

Soda, bor kislotasi, potash, titan dioksid, ammoniy digidrofosfat korxonaga tayyor holda keltirilganligi sababidan xomashyoni bunker (1) dan taminlagich (2) orqali vibratsion elak (7) dan o‘tkazilib, xomashyoni saqlash bunker (9) ga uzatiladi va kerakli miqdorda tortib olish uchun taminlagich (2) orqali dozator (10) ga uzatiladi, kerakli miqdorda o‘lchab olingan xomashyolar tarelkasimon aralashtirgich (11) ga yuboriladi.

Dozalanib aralashtirgichga yegilgan xomashyolar changishini oldini olish maqsadida 2% miqdorda suv qo‘shgan xolda aralashtirilib shisha omixtasi olinadi. Tayyor xolga kelgan omixta elevator (12) orqali vannali pech (13)ga yuboriladi. Tayyor bo‘lgan shisha massasini granula holatiga keltirish uchun suvli vanna (14) ga quyiladi. Granula xolatida olingan shisha frittasiga gil tuproq qo‘shilib maydalab shliker xolida emal qoplamasi olish uchun sharli tegirmon (15) ga yuboriladi, shliker xolatida namligi 35-38% bilan olingan emal qoplamasiga gruntlangan metall botirib olish bilan emallanadi (16), so‘ngra quritilib (17) $820\text{--}830 \text{ }^\circ\text{C}$ da kuydirish uchun elektr pechi (18)ga yuboriladi. Tayyor bo‘lgan mahsulot ombor (19) ga yuboriladi.

Ushbu ishlab chiqilgan shisha pishirish rejimi “GOLDFIBER PRO” QK laboratoriyasida sinovdan o‘tkazildi (“GOLDFIBER PRO” QKning 07.06.2024 yildagi dalolatnomasi), natijada sirt emal qoplamalari ishlab chiqarish uchun fritta olishga erishildi.



9–rasm. Emal qoplamasi olishning prinsipial sxemasi

1 – xomashyo bunkeri, 2 – taʼminlagich, 3 – kvars qumini yuvish, 4 – jagʻli maydalagich, 5 – barabanli quritgich, 6 – bolgʻali maydalagich, 7 – vibratsion elak, 8 – magnit separator, 9 – xomashyoni saqlash bunkeri, 10 – tarozi, 11 – tarelkasimon aralashtirgich, 12 – elevator, 13 – hovuzli humdon, 14 – granulyator, 15 – sharli tegirmon, 16 – purkagich, 17 – quritgich, 18 – elektr humdon, 19 – tayyor mahsulot ombori.

Yiliga 1000 tonna grunt ishlab chiqarishdan olinadigan hisoblangan iqtisodiy samara yiliga 14 milliard soʻmni tashkil etadi.

Yiliga 1000 tonna emal ishlab chiqarishdan olinadigan iqtisodiy samara yiliga 15 milliard soʻmni tashkil etadi.

XULOSALAR

1. $\text{SiO}_2\text{--Al}_2\text{O}_3\text{--Na}_2\text{O--K}_2\text{O--CaO--B}_2\text{O}_3\text{--NiO--Cu}_2\text{O--Co}_2\text{O}_3$ tizimida shisha hosil boʻlish chegarasi oʻrganildi. Tahlillar sintez qilingan shishalarning asosiy komponentlar miqdori quyidagi oraliqlarda %: SiO_2 : 41–54, Al_2O_3 : 4–8, Na_2O : 18–27, K_2O : 0.5–2, CaO : 5–10, B_2O_3 : 8–18, CoO : 0.1–0.8, NiO : 0,4–1, Cu_2O : 0,4–0,9 ekanligi aniqlandi.
2. $\text{SiO}_2\text{--Al}_2\text{O}_3\text{--Na}_2\text{O--K}_2\text{O--CaO--B}_2\text{O}_3\text{--NiO--Cu}_2\text{O--Co}_2\text{O}_3$ tizimida bor oksidi miqdorini oshib borishi ketma ketligida grunt qoplamasining yoyiluvchanlik qobiliyatining ortishi va sirt tarangligining kamayishiga taʼsiri oʻrganildi.
3. $\text{SiO}_2\text{--Al}_2\text{O}_3\text{--Na}_2\text{O--K}_2\text{O--CaO--NiO--B}_2\text{O}_3\text{--Co}_2\text{O}_3\text{--Cu}_2\text{O}$ tizimida shisha hosil boʻlish shartlari aniqlanib, grunt qoplamasining fizik – kimyoviy xususiyatlarining shisha omixtasi tarkibidagi komponentlarga bogʻliqligi aniqlandi.

4. $\text{SiO}_2\text{--Al}_2\text{O}_3\text{--Na}_2\text{O--K}_2\text{O--CaO--B}_2\text{O}_3\text{--NiO--Cu}_2\text{O--Co}_2\text{O}_3$ tizimi asosida mahalliy homashyolar yordamida grunt qoplamasining tarkiblari ishlab chiqildi. Grunt qoplamasi mustahkamlik, yoyiluvchanlik va issiqlikdan chiziqli kengayish koeffitsenti fizik – kimyoviy xususiyatlari bo‘yicha o‘rganilgan tarkiblar GOST R 52569 – 2018 talablariga javob berishi aniqlandi.
5. $\text{SiO}_2\text{--Al}_2\text{O}_3\text{--Na}_2\text{O--K}_2\text{O--B}_2\text{O}_3\text{--TiO}_2\text{--P}_2\text{O}_5$ tizimida shisha hosil bo‘lish sharoitlari o‘rganildi. Sintez qilingan shishalarning asosiy komponentlar miqdori quyidagi oraliqlarda %: SiO_2 : 39–45, Al_2O_3 : 4–7, Na_2O : 11–16, K_2O : 1–3, B_2O_3 : 14–21, TiO_2 : 12–19., P_2O_5 : 2–3. ekanligi aniqlandi.
6. $\text{SiO}_2\text{--Al}_2\text{O}_3\text{--Na}_2\text{O--K}_2\text{O--B}_2\text{O}_3\text{--TiO}_2\text{--P}_2\text{O}_5$ tizimi asosida mahalliy homashyolar orqali emal qoplamasining tarkiblari ishlab chiqildi. Emal qoplamasi oqlik, yoyiluvchanlik va issiqlikdan chiziqli kengayish koeffitsenti fizik – kimyoviy xususiyatlari bo‘yicha GOST R 52569 – 2018 talablariga javob berishi aniqlandi.
7. “GOLDFIBER PRO” QK laboratoriyasida optimal tarkiblar asosida shisha fritta olishning tajriba sinovlari o‘tkazildi. Olingan grunt qoplamasining fizik – mexanik ko‘rsatkichlar: (zichligi – 2.63 g/sm^3 , yoyiluvchanligi – 37 mm, IChKK – $115,0 \cdot 10^{-7}, \text{K}^{-1}$, po‘lat yuzasiga yopishish kuchi – 4 ball) ga ega grunt qoplamasi olishga erishildi.
8. “GOLDFIBER PRO” QK laboratoriyasida optimal tarkiblar asosida shisha fritta olishning tajriba sinovlari o‘tkazildi. Olingan emal qoplamasining fizik – mexanik ko‘rsatkichlar: (zichligi – 2.63 g/sm^3 , IChKK – $84,0 \cdot 10^{-7}, \text{K}^{-1}$, kimyoviy turg‘unlik sinfi AA, oqlik ko‘rsatgichi 77%)ga ega emal qoplamasi olishga erishildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Т.04.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ХИМИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ**

ТАШКЕНТСКИЙ ХИМИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

НАИМОВ ШОХРУХ БОТИРЖОН УГЛИ

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ ЭМАЛЕЙ ДЛЯ БЫТОВЫХ
ИЗДЕЛИЙ НА ОСНОВЕ МЕСТНОГО СЫРЬЯ**

02.00.15 – Технология силикатных и тугоплавких неметаллических материалов

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за № В2024.3.PhD/T4805

Диссертация выполнена в Ташкентском химико-технологическом институте.
Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице научного совета по адресу (ik-kitmu.niu.uz) и информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Аринова Мастура Хисматовна**
Доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Искендеров Ахмед Макседбаевич**
доктор технических наук, профессор

Талипов Нигматулла Хамидович
доктор технических наук, профессор

Ведущая организация: **Ташкентский государственный технический университет им. И.Каримова**

Защита диссертации состоится «19» 11 2024 г. в «9⁰⁰» часов на заседании Научного Совета DSc.03/30.12.2019.T.04.01 при Ташкентском химико-технологическом институте (Адрес: 100011, г. Ташкент, Шайхантахурский район, ул. А.Навои, 32. Тел.: (99871) 244-79-20, факс: (99871) 244-79-17, e-mail: ikti_info@edu.uz, Административный корпус Ташкентского химико-технологического института, 2 этаж, конференц-зал).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского химико-технологического института (зарегистрирован под номером 330). Адрес: (100011, г.Ташкент, Шайхонтахурский район, улица А.Навои, 32. Тел.: (99871) 244-79-20).

Автореферат диссертации разослан «26» 10 2024 года
(Протокол рассылки № 430 за «26» 10 2024 г.).




С.М. Турдиқанов
Председатель Ученого совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор


Х.Н. Кадиров
Секретарь Ученого совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

З.А. Бабаханова
Председательствующий научного семинара при Ученом совете, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации.

В настоящее время получение новых, качественных стеклоэмалевых покрытий без изменения технологических процессов имеет большое практическое значение. Помимо обеспечения легкой очистки, одним из актуальных вопросов является совершенствование технологий получения гигиенически чистых стеклоэмалированных хозяйственных бытовых изделий при хранении готовых и полуфабрикатных пищевых продуктов, предотвращающего развитие бактерий, устойчивого к воздействию агрессивных химических веществ, к коррозии, истиранию, трению и высоким температурам.

В мире проводятся углубленные исследования, направленные на производство эмали, не содержащей фтора, покрытие поверхности металлических изделий стеклоэмалью, а также применение технологий производства стеклоэмалированных хозяйственных бытовых изделий не вступающей в реакцию с воздухом. В связи с этим особое внимание уделено получению экологичного с пониженным количеством фторидов и качественного грунтового покрытия - химически стойкого, с повышенной микротвердостью, ударопрочностью, сцеплением, стойких к истиранию, коррозионностойких, с прочным силикатно-кислородным каркасом, достигаемое повышением количества оксидов алюминия, кремния и титана.

В нашей республике ведется масштабная научно-исследовательская работа по эффективному использованию материальных ресурсов, производству стеклоэмалированных хозяйственных бытовых изделий, расширению вида выпускаемой продукции, улучшению по качеству и увеличению по объему. Стратегия развития нового Узбекистана определяет важные задачи «разработки предложений и комплексных мер, направленных на удовлетворение потребностей внутреннего рынка в соответствующей продукции на основе изучения конъюнктуры рынка важной промышленной продукции»¹. В связи с этим разработка состава высококачественных энергосберегающих, легкоплавких стеклоэмалевых покрытий, совершенствование технологии производства, расширение ассортимента товаров бытового назначения и повышение их качества является актуальным.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в указах и постановлениях Президента Республики Узбекистан ПП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», УП-4992 от 13 февраля 2021 года «Дальнейшее реформирование и финансового оздоровления предприятий химической промышленности, модернизация предприятий металлургической промышленности, расширения ассортимента конкурентоспособной продукции, создание новых запасов сырья, рост импорта на их основе», № УП-99 от 24 января 2022 года «О мерах по созданию эффективной системы развития

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi 2022-yilning 28-yanvardagi PF-60-son farmoni.

